

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

A.Mamadaliyev, X.Kushiyev, Z.Abdullayeva

Sirdaryo viloyati sharoitida og'ir metallardan *Cannabis Sativa L.* o'simliklarining himoya qilishda fenolli tizimi 358

A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Aktamov

Sug'oriladigan tuproqlarning biogeokimyoiy muammolari 363

ILMIY AXBOROT**F.Madraximova**

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda hamkorlik texnologiyalari 369

M.Nasirov

Badiiy matnning assotsiativ maydon tahlili 372

B.Muxtoraliyev

Anvar Obidjon ijodi adabiyotshunoslik ko'zgusida 375

X.Mamatismoilova

Tarixiy etnolisoniy jarayonlar va o'zbek xalqining milliy tili 379

K.Topvoldiyev

Lingvokulturologiyada "sharq" konseptining masalalari 384

Z.Akbarova, D.Rustamova

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida leksik sinonimlarni faollashtirish bosqichlari 388

Song Ho-Lim

Chig'atoy turkiyning adabiy-uslubiy xususiyatlari 391

O.Uzaqova

Ingliz va o'zbek tillarida kompyuter terminografiyasining lingistik xususiyatlari 396

F.Anvarova

Ilk o'r ganuvchilarda ingliz tili o'qitishning pedagogik usullari 400

Sh.Iskandarova, S.Sotvoldiyeva

Mavhum otlar va ularning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi xususida 404

M.Yusupova

Evfemizmlar tasniflarining tahlili 407

F.Nurdinova

Tarjimada so'z tanlash mahorati xususida 409

Sh.Sherg'oziyev

«Boburnoma» matnidagi shaxslar tasvirida saj'i matavoziyuning o'rni va ularning inglizcha tarjimalarda aks etishi 413

Z.Pazilova

O'zbek va nemis tillarida dafn marosimi bilan bog'liq leksik birliklar tahliliga doir 416

Z.Axmedova

Lingvokulturologiya nazaridagi rimlar 420

Sh.Dushatova

Tabu so'zlar o'rganilishi va kelib chiqish tahlili 425

BIBLIOGRAFIYA 428

ILK O'RGANUVCHILARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING PEDAGOGIK USULLARI**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ****PEDAGOGICAL METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO PRIMARY STUDENTS****Anvarova Farzonabonu¹****¹Anvarova Farzonabonu**

– Farg'onan davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya

Maqolada, bugungi kunda kichik yoshdagi bolalarga ingliz tiini o'rgatishda o'ziga xos yondashuvlar, tilni o'rgatishda bola yoshiga mos bo'lgan usullardan unumli foydalanish hamda o'qitilishining innovatsion yo'llari atroficha yoritib berilgan. Bugungi kundagi mamlakatimizda ta'lif sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni erishilayotgan ijobji natijalarga tayangan holda taraqqiyot mevasi deb bemalol aytish mumkin. Shu o'rinda, ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi esa niyoyatda ko'zga ko'rinarli darajada ahamiyatli haqida so'z boradi.

Аннотация

В статье подробно описаны уникальные подходы к обучению английскому языку детей раннего возраста на сегодняшний день, эффективное использование соответствующих возрасту методик обучения языку, а также инновационные способы обучения. Изменения, происходящие сегодня в сфере образования в нашей стране, можно назвать плодом развития на основе достигнутых положительных результатов. На данный момент результат реформ, проводимых в системе образования, чрезвычайно значителен.

Abstract

In the article, today's unique approaches to teaching English to young children, effective use of age-appropriate methods for teaching the language, and innovative ways of teaching are described in detail. The changes taking place in the field of education in our country today can be said to be the fruit of development based on the positive results achieved. At this point, the result of the reforms implemented in the education system is extremely significant.

Kalit so'zlar: yangi metodlar, tinglab tushunish, intellektual qobiliyat, audio fayl.**Ключевые слова:** новые методики, аудированиe, интеллектуальные способности, аудио файл.**Key words:** new techniques, listening, intellectual abilities, audio file.**KIRISH**

Yangi taraqqiyot bosqichi mazmuni, mohiyati va maqsadlari asosida ro'y berayotgan taraqqiyotimizning hozirgi bosqichi ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarning murakkab uzviy aloqadorligi asosida sodir bo'lmoqda, oqibatda jamiyatimizda ijodiy fikrlovchi, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga ijtimoiy ehtiyoj ortib bormoqda.

Demokratik islohotlar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar globallashib, insoniyat hayoti, avvalambor, umumbashariy va planetar ziddiyatlarga bog'liq bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu borada shunday yozadi: "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamонавиy bilim va kasb-hunarлarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallah uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarmizni bir zum susaytirmsandan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"[1].

Mamlakatimizda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun, avvalo, yosh, iqtidorli kadrlar zarur. Shu ma'noda, jamiyat xavfsizligi va shaxsning intellektual salohiyati, ilm-fan sohasida erishgan olamshumul yutuqlari barkamol insonni tarbiyalashda muhim omil rolini bajaradi. Bu jarayonda mamlakat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va mafkuraviyasoslarning yuksak ijtimoiy o'zgartiruvchanlik tabiatini har bir odamda qobiliyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishi, kishilarda ratsional tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularni hozirgi

ILMIY AXBOROT

zamon fani, texnikasi va texnologiyasi haqidagi aniq bilimlar bilan qurollantirish lozim. Shu ma'noda globalashuv sharoitida ijtimoiy fanlar inqirozdan chiqishning eng faol ishtirokchisidir. Shu bois "gumanitar soha olimlari faoliyatini har tamonlama qo'llabquvvatlashimiz lozim"[2]. Aynan ilm-fan orqali yoshlarda intellektual qobiliyatlarni tarbiyalash, ularni ijtimoiy taraqqiyotning da'vatkor omiliga aylantirish imkoniyatlari mavjud.

Mamlakatimizda yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda chet tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha J.J.Jalolov, M.Djusupov, G.T.Mahkamova, T.K.Sattorov, L.T.Ahmedova, D.U.Hoshimova, V.I.Andriyanova, F.M.Rashidovalarning ishlari mavjud[5].

Ingliz tilini o'qitish metodikasi masalalari bo'yicha B.G.Kulmatov, I.M.To'xtasinov, F.Alimov, G.Tadjibaev, G.Sobirova, D.Tadjibaeva, SH.Akbarova, M.Muxitdinova, G.Azizova kabilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan[6].

Yevropa mamlakatlarida V.S.Avanesov, A.A.Krasnoborova, M.B.CHelishkova, A.D.Cohen, Tim McNamara, A.Hughes, Christian Coombe, Andrew Harrison, John W.Oller, Lyle F.Bachman, Adrian S.G. Palmerlar chet tilini bilish darajasini baholash masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan[7].

Dunyoning ilg'or davlatlari qatorida yurtimizda ham ta'lif tizimiga qaratilgan e'tibor tahsinga loyiq. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishga bo'lgan harakat yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Jumladan, dunyo davlatlari kabi mamlakatimizda ham aynan ingliz tilini ta'lif tizimida fan sifatida o'qitishni joriy etildi va bu bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Til o'rganuvchilar ingliz tilini samarali o'rganishlari uchun tilni o'qitish bog'cha hamda boshlang'ich ta'lindanoq boshlangan.

Bugungi kundagi mamlakatimizda ta'lif sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni erishilayotgan ijobiy natijalarga tayangan holda taraqqiyot mevasi deb bemalol aytish mumkin. Shu o'rinda, ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi esa nihoyatda ko'zga ko'rinarli darajada ahamiyatlidir. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi "Ta'lif muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 610- sonli qarori va uning ijrosi ham bunga misol bo'la oladi. Ya'ni qarorga ko'ra, ta'lif muassasalarida chet tilini o'qitish va uni baholashga bo'lgan e'tiborning kuchayishi ham aynan yoshlar ongida bilim ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqni paydo qilishga xizmat qiladi. Shu orqali o'quvchilarda chet tilini o'rganishda yanada chuqur metod va yo'nalish asosida o'z bilimini oshirish va uni baholashga imkon paydo bo'ldi, ya'ni ular 2018-yil 1-yanvardan boshlab chet tilini bilish darajasini belgilovchi CEFR imtihonini topshirish va sertifikatga ega bo'lism imkonini oldilar. Bu islohot yoshlarni chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshirdi hamda ularni tilni chuqurroq o'rganishga undadi.

NATIJALAR

Bu holat tabiiy ravishda o'rganishda psixik taraqqiyotga erishish bilan bog'lanadi. Masalan, islohotlar natijasida yoshlar ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ladi, bu esa ularda chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni paydo qiladi, ularni yanada ilgari borishga undaydi. Bu bilan barkamol va komil shaxs tushunchalari asosida yoshlar ulg'ayishi asosiy maqsad hisoblanadi. Aniq maqsadli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlar jamiyat uchun ham, davlat uchun ham kerakli shaxslar hisoblanadi. Shuning uchun olib borilayotgan siyosat ham, islohotlar ham bevosita shaxsning aqliy va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lismiga xizmat qilishi tabiiydir.

Bundan tashqari, ta'lilda yangilikka intilishda texnologiyalar eng asosiy vazifani bajardi. Chunki, ular orqali o'qituvchilarda yangi metodlarni qo'llash imkonini paydo bo'ldi. Bu esa o'qituvchiga o'rganilayotgan materialiga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishi va uni dars davomida faolligini kuchaytirish imkonini berib, aynan kognitiv faoliyatning tashkil etilishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchidan doimiy ravishda tegishli pedagogik izlanishlarni olib borish va ularni texnologiya yutuqlari bilan bog'lay olishi talab etiladi.

Endigi navbatda e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan narsa bu boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tilini qay yo'sinda o'rgatish mumkinligi. Bu o'rinda oldimizda ma'lum bir tavsiyalarni ishlab chiqish va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni o'rganish talab etiladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalari ham biz uchun bosh yordamchi bo'la oladi. «Ta'lif to'g'risida»gi qonun va »Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Ta'lif-tarbiya va kadrlar tayyorlash milliy dasturini tubdan isloh qilsh, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi farmonini bajarish doirasida ham yetuk pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan birga ingliz tilini o'qitishda kerak bo'ladigan lingofon sinflarni tashkil etish ham nazarda tutilgan"[3]. Shu sababli ham o'qituvchilar shunday sinf xonalardan samarali foydalanishlari lozim.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun multimedia vositalarini qo'llash ularni chet tiliga qiziqtirish uchun muhim rol o'ynaydi. Masalan, multfilm, video-qo'shiqlarni namoyish etish orqali dars olib borish mumkin. Bu bilan birinchidan, visual va audial bilim oshsa, ikkinchidan, bola diqqatini tortishga yordam beradi. Shuning bilan birga, multimedia vositalaridn foydalanishda o'qituvchilar ham yaratib berilayotgan sharoitlardan unumli foydalangan holda o'zlarining bor professional pedagogik kasb mahoratlarini ishga solib, yangi texnologiyalarni qo'llash - sifatl dars mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

MUHOKAMA

Yosh bolalar (aynan7-11 yosh ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari) uchun, eshitish va og'zaki o'rganish foydali. Bundan tashqari, turli xil o'yinlar orqali ham bolalar bilimini boyitish mumkin[4]. Demak, eshitib tushunishga to'xtaladigan bo'lsak, turli eshitish topshiriqlarini audiolar orqali amalga oshirish mumkin. Bolalarga moslangan turli xil qo'shiqlar, dialoglar va hattoki ertaklar sababli ularning tinglab tushunish ko'nkmalarini yetarlicha rivojlantirish mumkin. Shu o'rinda yosh bolalarga ingliz tilidagi so'zlarni o'zbek tilidagi so'zlarning aytishiga moslab o'rgatish ham samarali foya beradi. Masalan, «5000 words in a month» kitobida aynan shu metod orqali so'z yodlashga e'tibor qaratilgan. Kitob muallifi A.A'zamovning tavsiya etishicha, aynan ingliz tilida so'zlarning talaffuzi bilan mos keluvchi so'zlarni ishlatib yodlash yoki aynan shu so'zning tarjimasi va talaffuziga mos holatda birikma ya'ni «collocation» tarzida yodlash 85-90% yordam bermoqda.

Masalan;

- Glass (stakan)-gilos
- Fill (to'ldirmoq)-fil(hayvon ma'nosida)

Yoki gaplar bilan ifodalanganda:

1. Stakanga gilos sharbat quyildi.
2. Fil xartumidagi suv bilan idishni to'ldirdi.

Bu yo'naliш o'quvchini aynan tarjimadan chalg'itmasligi uchun o'qituvchi so'zga muvofiq ekvivalenti tanlashda ehtiyoqkor bo'lishi lozim. Chunki bolalar ingliz tilidagi so'zning aynan tarjimasini emas balki unga muvofiq keluvchi so'zni eslab qolishlari ham mumkin. Bu esa kutilgan natijani olishga halal beradi. Buning yordamida ham ingliz tilini oson o'rgatish mumkin. Masalan, sabzavotlarni o'rgatish uchun shunga doir so'zlar ishlatilgan va bir necha bor takrorlangan audiolardan foydalangan ma'qul. Yoki shu so'zlar qatnashgan she'r yoki qo'shiqlardan ham foydalanish mumkin. Ammo faqat qo'shiqlarga suyanib qolish bolalarga kerakli bilimlarni berishda ma'lum bir to'siqlar paydo qilishi mumkin.

Ingliz tilida bolalarga so'z o'rgatishda ma'lum bir tovushlarga qiyoslab o'rgatish ham mumkin. Masalan, tana a'zolarini o'rgatishda:

"Eye"-ko'zimizga tegib (og'riyapti degandek) «ay» deb talaffuz qilamiz. Yoki Ear- qulogni tortib «iyy» degan tovush bilan ham o'rgatish mumkin. Bunday usuldan foydalanish ham visual, ham audial, ham kinestetik o'quvchilar uchun yaxshi. Bu bilan biz kichkintoylarimizni ingliz tilida so'z yodlashlariga yordamlashamiz.

Navbatdagi metod-bu o'yindan foydalanish. Bu metod yordamida bolalarning bilim salohiyati o'sadi, darsga qiziqishni oshirish bilan birga, unda qatnashish ishtiyoqini paydo bo'ladi. Bundan tashqari, agar o'yin jismoniy harakatni ham talab etsa, bu jismoniy jihatdan ham yosh o'rganuvchiga ijobjiy effekt beradi.

Taboo word o'yini. Sinf ikkiga bo'linadi va jamoalar bir-biriga qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirish uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchinung ortiga o'tib turadi va katta qog'ozga yozilgan so'zni ushlab turadi. O'rindiqa o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'rib ta'riflashlari va ro'parada o'tirgan o'quvching bu so'zni uch daqiqada

ILMIY AXBOROT

topishiga yordam berishlari kerak, ammo bu oraliqda ular bu so‘zning o‘zini ishlatib qo‘ymasliklari zarur. Bu o‘yin bolalardan ko‘proq sinonim, ya‘ni ma’nodosh so‘zlar yodlashni va bilishni talab etadi, hamda darsni qiziqarli tarzda olib borilishiga ko‘maklashadi[5]. Tabiiyki, bolalarni til o‘rganishga qiziqtira olish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ham bog‘liq.

XULOSA

Shu o‘rinda aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini tez va samarali o‘rgatishda yuqorida keltirilgan tavsiyalar hamda tinglab tushunish qoidalaridan foylanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, darsning qiziqarliligi ham ta‘minlanadi. Bu vaziyatda malakali ustozdan darsni tashkillashda o‘z mahoratlarini ishga solishi talab etiladi. Shunda yosh bilimdonlarning ham bilim salohiyati oshishiga ham darsga qiziqishi ortishiga erishish mumkin.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - B.173.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28 dekabr 2018 yil. - T.: O‘zbekiston, 2019. - B.40.
3. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma’naviyat. 2008. 85-b.
4. Sattorov T. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent. 2015.
5. Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Джусупов М. Лингводидактика и методика в полинаучной системе языкового образования // Русский язык. 2009. № 2. -С.37-41.Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Саттаров Т. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка) док.дисс. автореф 2000 й, 32 б., Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковой взаимодействий: док. дисс. 2007. – 209 б; Джусупов М. Русский и английский языки в системе школьного полилингвального образования в Узбекистане. Русский язык зарубежом/ специальный выпуск / 2017. С. 50-57.
6. Тўхтасинов И.М-Таржимон тайёrlашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ходисаси асосида ривожлантириш . пед. фан. бўйича фалсафа док. (DS) дисс. –Тошкент, 2018, с 39. Кулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитиша CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш: Автореферат. Пед.фан. бўйича фал. док., - Тошкент, 2018. – 45 б. Алимов Ф. Ш . Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида) - Тошкент, 2018. – 63 б, Сабирова Г.С.-Умумтаълим мактаблари ўкувчиларига инглиз тили олмошларини ахборот технологиялари асосида ўргатиш методикаси. Автореферат. Пед.фан. бўйича фал. док., - Тошкент, 2017. – 65
7. Аванесов В.С. История возникновения тестов. – М., 2000; Красноборова А. А. Критериальное оценивание как технология формирования учебно-познавательной компетентности учащихся, 13.00.01, кандидат наук, – Нижний Новгород -2010; Чельышкова М.Б.Теория и практика конструирования педагогических тестов: Учебное пособие. – М.: Логос, 2002. – 432 с.; A. D. Cohen Assessing Language Ability in the Classroom. 1994; Christine Coombe, Keith Folse, Nancy Hubley. A practical guide to assessing English language learners. UniversityofMichigan, 2007. – 202 р. Harrison A.A. Language testing handbook. Macmillan Press. 1993–Р-145. John. W. Oller. Issues in language testing research. Rowley, Massachusetts, 1983.–Р-388. Bachman Lyle F. and Adrian S.Palmer. Language Testing in Practice. Designing and developing useful language tests. Oxford University Press 1996.–374.Р-23
8. “Games”-WWW Games for English.uz
9. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Баҳтиёр Сайдқулович, Джалалов Баҳромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
10. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
11. Джалалов Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 38-41.
12. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).
13. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).
14. Джалалов, Б. Б. (2020). ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 10(3).
15. Джалалов, Б. Б. (2022). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. УЧИТЕЛЬ, 3(4).
16. Джалалов, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. Ученый XXI века, 40.